

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-oktyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 6482,6 mlrd.so'mga teng bo'ldi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari 128,9 %ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2138,7 ming so'mga yetdi.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish, aholi turmush darajasini oshirishga, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra viloyatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 6482,6 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (34,1 %), transport xizmatlari (23,8 %), moliyaviy xizmatlar (13,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,3 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida xizmatlar tarkibi,%




2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6482,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	6482,6	107,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	410,8	114,6
moliyaviy xizmatlar	875,1	128,9
transport xizmatlari	1543,2	102,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1505,0	103,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	104,3	103,0
savdo xizmatlari	2214,0	104,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	198,5	102,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	243,3	95,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	89,8	123,0
ijara xizmatlari	154,1	111,7
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	168,9	103,9
shaxsiy xizmatlar	288,7	101,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	34,4	113,9
boshqa xizmatlar	157,5	108,9

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari (2214,0 mlrd.so'm), transport xizmatlari (1543,2 mlrd.so'm), moliyaviy xizmatlar (875,1 mlrd.so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (410,8 mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlar hajmi (288,7 mlrd. so'm) oshishi kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm



Me'morchilik sohasidagi xizmatlarda, xizmatlar hajmi o'sishi nisbatan pastroq (34,4 mlrd. so'm) qayd etildi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (128,9 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (123,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,6 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari (113,9 %), ijara xizmatlari (111,7 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,1 %), shaxsiy xizmatlar (101,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (95,3 %), kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari sezilarli ulushni egallaydi. 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida savdo xizmatlarining ulushi 34,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (23,8 %), moliyaviy xizmatlar (13,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,3 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan bo'lsada, lekin ularning ulushi ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida arziyas ulush (1,4 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birgalikda eng kichik ulush me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (0,5 %) qayd etildi.

Viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: A.Usmonov

Tel: (99871) 230-82-64